

O‘ZBEKISTONNING QURILISH-TA’MIRLASH VA ENERGIYA TEJAMKORLIK SOHASIDAGI MUAMMOLARNI O‘RGANISH**Arifdjonova Nozima Shoirovna**

(TAQU)

To'ymurodov Alirizo Boboxonovich

(TAQU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19559280>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda qurilish-ta‘mirlash hamda energiya tejamkorlik sohalarining dolzarb muammolari tahlil qilingan. Xususan, shahar va qishloq hududlarida olib borilayotgan qurilish va rekonstruksiya jarayonlaridagi kamchiliklar, me‘yoriy-huquqiy talablarning buzilishi, boshqaruv tizimidagi vakolatlar chegarasining aniq belgilanmaganligi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy loyihalash usullarini joriy etish, energiya samarador binolarni barpo etish, uy-joy fondini saqlash va undan samarali foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlari ko‘rib chiqilgan.

Maqolada mavjud muammolarni bartaraf etish va sohani yanada rivojlantirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish, rekonstruksiya, energiya tejamkorlik, shaharsozlik, uy-joy fondi, infratuzilma, loyiha ishlari, me‘yoriy-huquqiy baza, energiya samaradorligi, kommunal xo‘jalik.

Kirish:

Keyingi yillarda shahar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy me‘moriy qiyofasini shakllantirish, uy-joy va ijtimoiy-maishiy qurilishni jadal rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini yangilash hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Urganch, Qarshi, Shahrisabz shaharlarining arxitektura-loyihalashtirish tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Guliston, Termiz va Jizzax shaharlarini rekonstruksiya qilish ishlari jadal sur‘atlarda olib borilib yakuniy bosqichga kirdi.

Namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi zamonaviy turarjoylar barpo etilishi natijasida qishloq aholi punktlarining qiyofasi tubdan yaxshilanib bormoqda. 2016 yildan boshlab aholining kam ta‘minlangan qatlamlari uchun shaharlar va qishloq aholi punktlarida arzon uy-joylarni qurish ishlari yanada tezkor sur‘atlarda davom ettirilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar aholi punktlarida qurilish ishlarini olib borish va rekonstruksiya qilish, loyiha va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish davomida belgilangan tartib, qoida va me‘yorlar qo‘pol ravishda buzilayotgan holatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism:

Joylarda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi hamda davlat boshqaruvi organlari o‘rtasida hududlarni rivojlantirishda shaharsozlik jarayonini boshqarish borasida vazifalar va vakolatlarining aniq chegaralari mavjud emasligi shaharlar hamda boshqa aholi punktlarini rejali rivojlantirish va kompleks qurish hamda izchil rivojlantirish borasida shoshilinch, ba‘zida esa noto‘g‘ri loyihaviy-rejali qarorlar chiqarilishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy loyihalashtirish usullarini, amaliy dasturiy mahsulotlarni, ilm-fan, arxitektura va dizayn yutuqlarini hayotga tatbiq etish, zamon talablariga javob beradigan, murakkab hamda yuqori kategoriyali loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega istiqbolli yoshlarni jalb etish uchun yetarli qiziqishi bo‘lmagan loyiha tashkilotlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish talab etilmoqda.

Bugungi kunda shaharsozlik sohasiga oid asosiy masalalar va muhim muammolarni hal etish g'oyat dolzarb vazifa ekani inobatga olinib, 2018 yil 02 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3646-sonli qarori qabul qilindi.

Xususan, qabul qilingan qaror, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining arxitektura va shaharsozlik sohasida yagona davlat va ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan bo'lib, uning faoliyatidagi asosiy vazifalar va yo'nalishlarni belgilab beradi. Jumladan:

- shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirib va yangilab borish;
- loyihalash ishlari va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or texnologiyalar jalb qilinishini tashkil etish;
- bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kapital qurilishda davlat xaridlarini amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish;
- arxitektura, loyihalash va qurilish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ko'p xonadonli uy-joy fondining texnik holatini tubdan yaxshilash va undan oqilona foydalanish, ta'mirlash-tiklash ishlarini belgilangan muddatlarda olib borish, shuningdek, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarni yanada obodonlashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi.

Qarorda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilarni nazarda tutadi:

- aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, ko'p xonadonli uylarda joylashgan xonadonlardagi muhandislik-kommunikatsiya tizimi va umumiy tarzda foydalaniladigan infratuzilmalarni o'z vaqtida va sifatli ta'mirlash, shuningdek, ko'p xonadonli uy-joy fondiga tutash hududlarni obodonlashtirish, u yerda bolalar va sport maydonchalarini barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirish imkonini beradigan uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarishning ta'sirchan vertikal tizimini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- uy-joy kommunal soha tashkilotlari, xususan, ta'mirlash-tiklash xizmatlarining moddiy-texnika bazasini yaratish va mustahkamlash, ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

Qarorga muvofiq, 2017–2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini ta'mirlash, obodonlashtirish va undan foydalanish sharoitlarini yaxshilash dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturda ko'p xonadonli uy-joy fondining umumiy tarzda foydalaniladigan infratuzilmalarini kapital va joriy ta'mirlash, hududlarni obodonlashtirish, lift uskunalarini ta'mirlash va almashtirish, shuningdek, ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ta'mirlash tizimini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar belgilandi.

Qayd etilgan loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining Uy-joy kommunal xo'jaligini

rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, shuningdek, lizing hisobidan 1,8 trillion so'm mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Xulosa

Mazkur dasturini amalga oshirishda «O'zsanoatqurilishbank» aksiyadorlik tijorat banki uy-joy kommunal sohasiga qarashli tashkilotlarni moliyalashtirishni ta'minlaydigan vakolatli bank etib belgilandi.

Dasturini amalga oshirish doirasida tijorat banklariga «Ta'mirlash-tiklash xizmati» davlat unitar korxonasi va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga imtiyozli kreditlar ajratish tavsiya etildi. Shuningdek, mazkur qarorda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzurida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlariga shartnoma asosida buxgalterlik hisobini yuritish, konsalting xizmatlar ko'rsatish va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlaridan majburiy badallar yig'ish xizmatlarini ko'rsatadigan «Yagona hisob-kitob markazi» va shahar hamda tumanlarda uning filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Qarorning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi: birinchidan, bu qaror ko'p xonadonli uy-joy fondining texnik holatini va undan maqsadga muvofiq holda foydalanishni tubdan yaxshilash, ta'mirlash-tiklash ishlarini o'z vaqtida o'tkazish;

Ikkinchidan, aholining rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan ko'p xonadonli uy-joy fondida yashashi uchun har jihatdan qulay sharoit yaratish;

uchinchidan, ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishda joylardagi ijro hokimiyati organlari va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonuni. 1997 yil.
2. QMQ 2.01.04-97* "Qurilishda issiqlik texnikasi". Toshkent–2011 y.
3. QMQ 2.01.01-94 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy–
4. geologik ma'lumotlar". Toshkent–1996 y.
5. ShNQ 2.08.01-05. Turar-joy binolari. Toshkent – 2006 y.
6. QMQ 2.01.18-2000* "Binolar va inshootlarni isitish
7. shamollatish va konditsiyalash uchun energiya sarfi
8. me'yori". Toshkent – 2011 y.
9. ShNQ 2.08.02-09* Jamoat binolari va inshootlari. Toshkent – 2011 y.
10. R.Yu. Marakaev, D.K. Mirboboeva "Arxitekturaviy fizika" O'quv qo'llanma. Toshkent 2001 y – 82 bet.
11. R.Yu. Marakaev "Binolarni loyihalashning fizika-texnikaviy loyihalash asoslari". Toshkent – 2005 y – 137 bet.
12. R.Yu. Marakaev, N.N. Norov "O'zbekiston Respublikasi sharoitida energiya samarali binolarni loyihalash" Toshkent – 2009 yil.
13. G'.Sh. Shukurov, S.M. Boboev "Arxitektura fizikasi". Darslik Toshkent 2005 y – 160 bet.
14. Raschyot i proektirovaniya ograjdayushix konstruksii. Spravochnoye posobiye – M; Stroyizdat – 1990 g.
15. D.V. Nemov, Energoeffektivnyye texnologii v ograjdayushchix konstruksiya / Stroitelstvo unikalnyx zdaniy i soorujeniy 2012. №3.